

**Mamurova Dilfuza Islomovna
Avliyakulova Nafisa Muzaffarovna**



**RANGSHUNOSLIK VA
KOMPOZITSIYA ASOSLARI**

O'QUV-QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Mamurova Dilfuza Islomovna
Avliyakulova Nafisa Muzaffarovna**

**RANGSHUNOSLIK VA
KOMPOZITSIYA ASOSLARI**

O'QUV-QO'LLANMA

5150800 – Rangtasvir (dastgohli)

**5151200 – Amaliy san'at (amaliy san'at
asarlarni ta'mirlash)**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021**

УЎК 7.012(075.8)

85.14я73

М 23

Mamurova D.I., Avliyakulova N.M.

Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari [Matn] : o'quv qo'llanma / D.I.

Mamurova, N.M. Avliyakulova.-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona,
2021. -132 b.

КБК 85.14я73

Taqrizchilar:

N.J.Yodgorov, BuxDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrası mudiri, dotsent, p.f.n.

S.F.Abdullayev, BMTI, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi
kafedrası p.f.d.dots.

Рецензенты:

Н.Дж.Ядгаров, к.п.н., доц. заведующий кафедры изобразительного
искусства и инженерная графика Бухарского государственного
университета

С.Ф.Абдуллаев, д.п.н. доцент кафедры Начертательной
геометрии и инженерной графики Бухарского инженерно
технологического института

Reviewers:

N.J.Yadgarov, BSU Head of the department "Fine Art and
Engineering Graphics" Candidate of senior lecturer

S.F.Abdullayev, The senior teacher of the department Sketch
Geometry and Engineering Graphic, d.p.s.

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug'iga
asosan nashr etishga ruxsat berilgan.**

Ro'yxatga olish raqami 110-136.

ISBN 978-9943-7231-8-4

Mazkur o'quv qo'llanma 5150800 – Rangtasvir (dastgohli) ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida belgilangan “Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari” fanidan bakalavr yo'nalishi dasturi asosida yozilgan bo'lib kirish va ikki bobdan iborat. Qo'llanmaning kirish qismida rangshunoslik fanlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar, rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanlarini o'qitishning asoslarini belgilash, rangtasvir ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmuni tushunchalari va uning inson amaliy faoliyatidagi ahamiyati qisqa bayon qilingan. Qo'llanmada rangshunoslik va kompozitsiya tarixi, rang nomlari, rang toni, koloriti, ritmi, va ularning kelib chiqishi, natyurmortning tusli tasvirlanishi, muvozanat va tekislikni aniqlash, rangda faktura va teksturani topish, shaklni bir-biriga bog'lash. yaqqollik va o'zaro bog'liqlik, perspektiva, manzara kompozitsiyasi, portret kompozitsiyasi mavzulariga oid ma'lumotlar rangli tasvirlar bilan keng yoritilgan, oxirgi qismda fanga oid lug'at o'rin olgan.

O'quv qo'llanmadan rangtasvir, rangtasvir va kompozitsiya, fanlari o'qitiladigan barcha oily ta'lim muassasalari talabalari, yosh pedagoglar, maktab o'qituvchilari bevosita foydalanishlari mumkin.

Этот учебник состоит из двух глав по программе бакалавриата «Основы живописи и композиции» в учебной программе 5150800 -Живопись образование. Во введении дается краткий обзор изменений в науке о живописи, определяются основы живописи и композиции, цель, задачи и содержание живописи и ее значение в практике. В книге включает историю окраски и композиции, названия цветов, цветовой тон, ритм и их происхождение, натюрморт, находить баланса и плоскости, текстур и текстур в цвете. информация о яркости и взаимозависимости, перспективе, композиция пейзажная, портретная композиция, широко освещена цветными иллюстрациями, а последний раздел содержит словарь.

Учебник может быть использован непосредственно студентами всех вузов, молодыми преподавателями, школьными учителями, которые преподают предмет живопись, живопись и композицию.

This book consists of two chapters for the undergraduate program "Fundamentals of Painting and Composition" in the curriculum 5150800 -Painting education. The introduction gives a brief overview of changes in the science of painting, defines the basics of painting and composition, the purpose, objectives and content of painting and its significance in practice. The book includes the history of coloring and composition, color names, color tone, rhythm and their origin, still life, finding balance and planes, textures and textures in color. information about brightness and interdependence, perspective, landscape composition, portrait composition, widely illuminated by color illustrations, and the last section contains a dictionary. The textbook can be used directly by students of all universities, young teachers, school teachers who teach painting, painting and composition.

MUNDARIJA

So'z boshi	7
Kirish	9
I bob. Rangshunoslik asoslari	12
1-§. Ta'lim tizimida rangshunoslikni o'qitish muammolar	14
2-§. Kompozitsiya tarixini rivojlanishi	17
3-§. Rang nomlari ya ularning kelib chiqishi.	21
4-§. Axromatik ranglarni aniqlash.	24
5-§. Natyurmortning tusli tasvirlanishi (grizayl)	28
6-§. Qo'shimcha ranglar hosil qilish	32
7-§ Kontrast ranglarni topish	35
8-§ Ranglar toni oqargan, qorayganini topish.	39
9-§ Rang koloritini hosil qilish.	43
10-§.Ranglardan kompozitsiya tuzish	46
11-§. Rangda ritmni ko'rsatish	54
12-§. Rang aylanasi hosil qilish	59
13-§. Muvozanat va tekislikni aniqlash	61
14-§. Simmetriya va assimetriya aniqlash	65
15-§. Rangda faktura va teksturani topish	69
II bob. Kompozitsiya asoslari	72
16-§. Shaklni bir-biriga bog'lash.	72
17-§. Asosiylik va ikkinchi darajalilik	76
18-§. Perspektiva	80
19-§. Vazifaning ketma-ketligini to'g'ri bajarish	85
20-§. Shaklni o'lchamlarini farqlash.	94
21-§. San'at va sintez	97
22-§. Manzara kompozitsiyasi	100
23-§. Portret kompozitsiyasi	111
24-§. Bir figurali kompozitsiya	117
25-§. Mavzuli voqeaband kartina kompozitsiyasi	120
Lug'at	125
Adabiyotlar	131

SO'Z BOSHI

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san'at muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi, tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Tasviriy san'at mashulotlari talabalarning pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak rassom-o'qituvchi, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashi shart. O'qituvchi qalam va bo'yoqlar bilan rasm ishlash malakasiga ega bo'lish bilan birga, shu sohadagi nazariy hamda amaliy bilimlarini o'quvchilarga yetkaza olishi ham zarur. Ushbu qo'llanmada rangshunoslik va kompozisiya haqidagi nazariy, amaliy, metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritilgan.

Rangshunoslik va kompozisiya haqidagi tushuncha va uning rivojlanish tarixi, oddiy geometrik jismdan tashkil topgan natyurmortdan boshlab, rang nomlari ya ularning kelib chiqishi, metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va materiali har xil bo'lgan bir qator buyumlardan iborat natyurmortlar tuzib, san'at va sintez, rangda faktura va teksturani topish va sinalgan usul hisoblanadi.

Rangshunoslik va kompozisiyaning nazariyasini muntazam o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosidir. Kompozisiya qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin.

Keyingi vaqtda tasvirlashning nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu qo'llanma ham rangshunoslik va kompozisiyani bekam-u ko'st yoritib bergan. Ta'lim olish jarayonida talabalar, avvalo, rangshunoslik va kompozisiyaning asosiy qonunlari – rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

KIRISH

Ma'naviy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etgan jamiyat taraqqiyotning ravon yo'liga tushgan hisoblanadi. Jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli, ilmiy bilim, ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog'lom, jismonan etuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor normalarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab etishtirishdan manfaatdordir.

Rangshunoslik ta'limni yangilash ishini, rangshunoslik fanlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar mohiyatini anglagan holda, ularga xos xususiyatlarni hisobga olib amalga oshirish kutilgan natijalarni beradi. Hozirgi zamon talabi avvalo, mustaqillik illatimiz rangshunoslik faniga xos bo'lgan etakchi yo'nalishlarni belgilab, bu fanning taraqqiyot tendensiyalarini badiiy ijodiy jihatdan asoslashdir. Yangilangan tafakkur mevasi bo'lgan rangshunoslik fani tizimida, rangshunoslik fani qanday o'rin tutadi va uni yo'lga qo'yishning badiiy ijodiy asoslari nimalardan iborat bo'lishi kerak degan savolga shundagina to'g'ri javob topish mumkin bo'ladi. Chunki ijtimoiy o'zgarishlarning, rangshunoslik fanidagi yangilanishlar ta'limni tashkil etishda to'liq aks etishi aniq.

Yangilangan pedagogik tafakkur va oliy ta'lim muassasalarida rangshunoslik fanini o'qitishning badiiy ijodiy asoslari yangilanayotgan milliy rangshunoslik fanining talablari asosida rangshunoslik ta'lim jarayonida ro'y bergan, berayotgan va bo'lishi muqarrar o'zgarishlarning asosiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirishga extiyoj tug'iladi. Rangshunoslik ta'limning o'zak masalalarini hal etmay turib, uning xususiy muammolarini to'g'ri echib bo'lmaydi-ki, aynan mazkur jarayon orqali shaxs ma'naviyati shakllantiriladi.

Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanlarini o'qitishning asoslarini belgilash, rangtavor ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmuni tushunchalarini yangicha pedagogik tafakkur nuqtai nazaridan izohlash, rangshunoslik ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchi munosabati xarakterini ko'rsatish, rangshunoslik darslari

I BOB. RANGSHUNOSLIK ASOSLARI

Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining asosiy vazifasi talabalarda ijodiy tasavvurni o'stirish; hayotda voqealikni ko'rib idrok etish; badiiy did va madaniyatni tarkib topitirish, barcha san'at sohalarida kompozitsiyani qullay bilishi; fandan olgan bilimlarini xayotda va o'qituvchilik kasbida unumli foydalanishni ta'minlashdan iborat, o'ziga xosligi, rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining ilmiy, nazariy, amaliy va kelajakni belgilash funksiyalari, yosh avlodni ijodiy dunyo qarashi tarbiyasi hamda ta'lim muammosini ishlab chiqishda rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining ahamiyati, rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'zini o'zi tarbiyalash, mustaqil o'qish, rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining asosi amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at namunasini yaratish ustida ishlashni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

San'atda mazmun va g'oyaning eng yaxshi yechimini topish, ijodiy mahoratni oshirish nafosat tarbiyasining zaruriy qismi, rangshunoslik va kompozitsiya asoslarining tasviriy san'atda tutgan o'rni; dastgohli, monemental, dekorativ rangshunoslik va kompozitsiya asoslarining farqlovchi tomonlar, realistik rangshunoslik va kompozitsiya asoslari qonunlari, kompozitsiya asoslari, issiq va sovuq ranglar, kolorit, ritm, tus, yorig'lik, rang dog'i, umumiy tus va rang bo'yog'i, turli tasvirlash materiallari xususiyatlari, rang uyg'unligi qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanish yo'llari, rang gammasi, motiv, xissiylik, yaxlit ko'rish, rangshunoslik va kompozitsiya asoslari ishlash metodlari; suyultirgichlar, mato, gruntlar, suyuq ishlov berish, surtma; rangshunoslik va kompozitsiya asoslari ashyolar; akvarel, tempera, guash va moybo'yoqlar to'g'risida ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Tayanch so'zlar: *kolorit, ritm, gamma, monemental, dekorativ, grunt.*


Nazorat savollari:

1. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining vazifasi nimadan iborat?
2. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqida nima deb bilasiz?
3. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslarining tasviriy san'atda tutgan o'rni nimada?
4. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining asosi nimalar?
5. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining asosiy kategoriyalarini sanab o'ting?
6. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari qonunlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at namunasini yaratishda fanning ahamiyati bormi?
8. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fani nimalarni o'rgatadi?

1-§. Ta'lim tizimida rangshunoslikni o'qitish muammolar

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ulami origanish uchun cheksiz inson umri kerak bo'ladi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne'matlarning sirli olamini, sabablarini o'rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan.


Chunonchi, «rang» atamasi to'rtta harfdan iborat bo'lsa-da uning ma'nosiga va sirli olamini o'rganishiga insonlarning umri yetmaydi.



Yorug'likda spektral ranglar

Rangni ilmiy jihatdan o'rganish uchun «Rangshunoslik» fani yuzaga kelgan. Rang inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda hattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar ishlab kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio shahridagi rang instituti dunyoga mashhur. Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma'noda gapirish; ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilg'asi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo'jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish; insonlar ma'naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o'rganilmoqda.

Respublikamizda yuqori malakali va ma'rifatli kadrlarni yetishtirish va ilm sohiblari safini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang insonlarning



Rang turlari

ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, rang ruhiyatga har daqiqada ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Yorug'lik bor joyda rang bo'ladi. Chunonchi, kechqurun uyingizda chiroq o'chib qoldi, deylik hamma joy qop-qora zulmat bo'lib ko'rinadi. Siz siqilasiz, tushkunlikka tushasiz, insonda mavhumlik paydo bo'ladi. Ko'z qorachig'i kattalashadi, yurak urishi o'zgaradi, bu holat kishilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi.

Buning aksini olaylik, har bahorda lola sayliga chiqqaningizda, toza havodan

tashqari, qir-adirlarda turli rangdagi gullarni, maysalarni, musaffo osmonni, tog' cho'qqisidagi oppoq qorlarni ko'rib, ruhingiz ko'tariladi, hayotga va tabiatga bo'lgan muhabbatigiz yanada oshadi. Shuning uchun ham, qadimiy qo'lyozmalarda yozilganidek, tabiblarimiz erta bahorda qir-adirlarga sayohat qilishni tavsiya etganlar.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, KamoliddinBehzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma'nolari, inson sog'lig'iga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o'zining «Kitob al javohir ma'rifat al-javohir» (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musawirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma'nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba'zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: avion, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug'doyrang, bo'z gulgun, jigarrang, zangori, za'faron, zumrad, qahrabo, kulrang, ko'k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar, samo rang, sur, feruza, uchoq kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag'iz, qoracha qo'ng'ir, havorang, anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo'ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg'aldoq, kaptarbo'yin, ko'kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, nowot rang, nilobi, nimtatir, nim pushti, noigul, olovrang, olmatakori, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovet, surma rang, tillarang, tupori to'liq, to'tiyoyi va